

SURXONDARYODA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI,RIVOJLANTIRISH YO'LLARI,VA KAMCHILIKLARI

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Avazbekova Parvina Muhammadmurod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada Surxondaryodagi eng ko'zga tashlanib turadigan,obyektlar haqida ma'lumot berilgan.Surxondaryo turizmi boshqa viloyatlar turizimiga qaraganda o'zining xilma-xilligi, va turistlarni jalb qilish imkoniyati yuqoriroq ekanligi bilan ajralib turadi.Surxonadaryodagi obyektlarni yanada rivojlantirish yo'llari va ba'zi bir tarixiy obyektlarni saqlash bilan bog'liq kamchiliklari ko'rsatib o'tilgan.*

Annotation:*This article provides information about the most prominent objects in Surkhandarya .The tourism of Surkhandarya is different than the tourism of other regions due to it's diversity and the possibility of attracting tourists.Ways of further develop the objects in Surkhandarya and some shortcomings related to the preservation of historical objects are pointed out .*

Аннотатцы:*В данной статье представлена информация о наиболее выдающихся объектах Сурхандарьи.Туризм Сурхандарьи отличается от туризма других регионов своим разнообразием и привлекательностью для туристов.*

Kalif so'zlar: *Teshiktosh g'ori, Sayrobdagi chinor,Omonxona bulog'i,Sangartak,Termiz arxeologiya muzeyi ,Boysun tog'lar,Qonbeshbuloq meteroit ko'li,Omonxona sanatoriyasi.*

Key words:*The hole stone cave,the plantain in Sayrob, the spring of Omonxona,the Termiz archaeological museum,the Boysun mountains, the Qonbeshbulak meteroi hill,sanatorium Omonxona*

Ключевие слова:*Пещера Тешиктош, Подорожник в Сайробе, родник Омонхона Термезеский археологический музей, Байсунский горы, Ганбешбулак коли,санатория Омонхона*

Kirish

Bizning yurtimizda juda ko'plab tarixiy obyektlar mavjud .Biz hozir bu imkoniyatlarni bir qismini Surxandaryo viloyatida joylashgan ajoyib tarixiy obyektlar misolida ko'ramiz.Arxeologik topilmalar,arab va yunon manbalarida keltirilgan ma'lumotlar Termizning sharqdagi qadimgi

shaharlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Termizning geografik jihatdan qulay joylashishi, iqlimi va strategik mavqei ko'plab davlatlar va hukumdorlarning e'tiborini o'ziga tortgan. Surxondaryoning tarixi ham uzoq mingyilliklarga borib taqaladi. Bu viloyat tarixi, obyektlari haqida qancha gapirsak ham kam.

Asosiy qism

Teshiktosh g'ori

Surxondaryoda ko'p tarixiy obyektlar mavjud aynan shulardan biri Teshiktosh g'ori. G'or dengiz sathidan 1500 kilometr balandlikda, Surxondaryo sharqidagi Boysun tog' tizmasida joylashgan. 1938–1939 yillarda taniqli arxeolog Aleksey Okladnikov shu g'ordan muste davriga oid neandertal qiz bolaning qoldiqlarini topgan. Urush yillarida bu yerda olimlar (akademik M.E. Masson va G. Pugachenkovaning maktabi) tomonidan arxeologiya sohasida haqiqiy g'alabaga erishilgan, bir muncha vaqt o'tgach qoldiqlar 8-9 yoshli qizaloqqa tegishli ekanligi isbotlandi. Antropolog olim M.M. Gersimovning mehnati samarasi o'laroq 8-9 yoshli neandertal qizning qiyofasi tiklangan bo'lib, uni hozirda Termiz arxeologiya muzeyida ko'rish mumkin. Dafn qilingan joydan tog' echkilarining shoxlari va boshqa hayvonlarning qoldiqlari topilganligi o'sha paytda dafn marosimi maxsus marosim shaklida va qurbonliklar bilan o'tkazilganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Teshiktosh O'zbekistonning noyob arxeologik qo'riqxonalaridan biridir. Mamlakatimizning ming yillik madaniyatini o'ziga tortadigan ushbu mintaqaning go'zal tabiati hayratga soladi. Albatta bunday ajoyib yodgorliklar har bir insonni o'ziga jalb qilmay qolmaydi. Bu yodgorliklar bilan tarix jonlanadi. Bu manzara nafaqat tarix sohasiga qiziquvchi turistlarni balki barcha insonlarni o'ziga jalb etadi. Mahalliy aholini ham e'tiborini tortadi bu esa ichki turizmni rivojlantirish uchun bir yo'l desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda avvalo marketing kuchaytirishimiz lozim. Alohida tarix yo'nalishida o'qidigan yoshlarni bu manzilga olib kelish kerak chunki inson oqigan ma'lumotlarini amaliyotda ko'rsa bilimi yanada mustahkamlanadi, fanga bo'lgan ishtiyoq yanada ortadi.

Sayrobdagi Chinor

Sayrobdagi chinor - Surxondaryo viloyatidagi, Sayrob qishlog'ida yoshi taxminan 900 yildan oshgan, bo'yi 26m atrofida bo'lgan qadimiy daraxt. Bu daraxt tabiat yodgorligi sifatida davlat qaramog'iga olingan. Surxondaryo viloyatining xushmanzara manzillaridan sanalgan Boysun tumanidagi Sayrob qishlog'i hududida qariyb bir asrlik ikki tup chinor bor. O'tgan asr boshlarida ko'hna chinor kovagidan bir muddat askarlar qarorgohi, 1920-yilda qishloq kengashi idorasi, 1932-1934-yillarda kutubxona faoliyat olib borgan.

Keyinchalik esa qishloq savdo do'koni, maktab, choyxona, sartaroshxona sifatida foydalanilgan. Hozirda bu yerda mo'jazgina muzey tashkil etilgan. Surxondaryo viloyatining xushmanzara manzillaridan sanalgan Boysun tumanidagi Sayrob qishlog'i hududida qariyb bir asrlik ikki tup chinor bor.



Omonxona bulog'i

Omonxona qishlog'i Boysun tuman markazidan 16 kilometr uzoqlikda joylashgan. Uning atrofi bir-biri bilan yelka tirashgan qir-adirliklar bilan o'ralgan. Omonxonaga Ollohning nazari tushgan. Kexsa odamlarning naql qilishlaricha, o'troq aholi hozirgacha o'tkir yuqumli kasalliklarga chalinmagan. Ular sariq kasalligi u yoqda tursin, hatto oshqozon ichak kasalligi bilan ham og'rimagan, hatto bu yerda hech kim shu paytgacha yuqumli kasalliklar bilan og'rib, shifokorga murojaat qilmagan. Aksincha, sariq kasalligiga chalingan, yoxud jigar serrozi hayotiga chang solgan kishilar Omonxonadan najot izlashadi. Uzoq manzillardan yo'l yurib, ana shu qadimiy, ayni paytda yasharib, yashnab borayotgan ko'rkam qishloq tomon oshiqishadi. Omonxona bulog'i o'zining shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Bulog suvining tarkibida inson salomatligi uchun foydali bir qancha elementlar mavjud.

Sangartak sharsharasi

Ikki tog' tizmasi orasidagi jarliklarda "Xondiza" konchilar qishlog'i joylashgan bo'lib, uning aholisi ko'mir qazib olish bilan shug'ullangan. Undan atigi 30 km. masofada, go'zal sharshara joylashgan. Mahalliy aholi orasida tabiatning ushbu diqqatga sazovor joyi haqida ko'p afsona va hikoyalar yuradi. Aytishlaricha, bu

sharsharasi shu yerda joylashgan qishloq nomi bilan atalgan. Sang - tosh so'zidan olingan bo'lib, tosh o'rtasidagi qishloq degan ma'noni beradi. Haqiqatda ham shunday, ushbu qishloq ikki tomoni baland tog'lar bilan

o'ralgan so'lim maskandir. Bu yerdagi sharsharani ko'rish uchun qadimgi yunonlar, arablar va butun Movorounnahrning hukmdorlari bu yerga kelishgan. Sangardak darasidan kirib kelaverishda, sharsharaning tovushi ancha uzoqdan eshitila boshlaydi. Pastga oqib tushayotgan suv, qoyalalar va suv o'simliklari orasidan 20 metrlik balandlikdan pog'onali sharshara singari oqib tushadi. Sharsharaning umumiy balandligi 120 metrdan ortiqroqni tashkil etadi

Sangardak sharsharasi - Sariosiyo tumani hududida, Denov shahridan 30 km. va Termiz shahridan 205 km. uzoqlikda joylashgan. Sariosiyo tumani, o'zining ichki continental subtropik iqlimi bilan mashhur bo'lib, ushbu iqlim, hududda o'ziga xos betakror mikroiklim yaratadi. Bu joylardagi adirlar va tepaliklar yam-yashil o'simliklar bilan qoplangan. Tuman hududi bo'ylab Hisor tog' tizmasi cho'zilgan bo'lib, undan Surxondaryo, To'palangdaryo, Obizarang va boshqa tog' daryolari oqib tushadi. Sangardak manzarali joylarda turli xil o'simlik va hayvonot dunyosi vakillarini uchratish mumkin. Sharsharaga kiraverishdagi yozuv qo'l mehnati bilan toshlar yordamida o'yib yozilgan. Bu esa kelayotgan turistlarni o'ziga jalb qilmoqda. Bu manzarani tabiatning haqiqiy mo'jizasi desak xato bo'lmaydi.



Termiz arxeologik muzeyi

Termiz arxeologiya muzeyi mamlakatimizda yagona arxeologiya yo'nalishdagi muzey bo'lib, ixtisoslashgan muzeylar sirasiga kiradi. Bu muzey qadim Surxon vohasining ko'p ming yillik tarixini o'zida jonlantiruvchi shahrimizning eng diqqatga sazovor maskanlaridan biri hisoblanadi. Termiz arxeologiya muzeyi kirish zali, 9 ta asosiy ko'rgazma zallari, numizmatika ko'rgazma zali, yapon arxeolog olimi Kato Kyudzoga bag'ishlangan ko'rgazma zali, kichik ko'rgazmalar zali va ayvon osti galereyasidan iborat. Shuningdek, muzeyda nodir qo'lyozmalar va adabiyotlar saqlanadigan

kutubxona ham mavjud. U Janubiy hududda olib borilayotgan uzluksiz arxeologik qazuv va ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida, muzey eksponatlari soni muntazam ortib bormoqda. Agar 2002 yilda ular soni 27.247 dona bo'lsa, 2019 yilga kelib bu raqam 110.000 ni tashkil etdi. Ushbu muzey O'rta osiyo davlatlari ichidagi yagona va qadimiy eksponantlar saqlanadigan muzey hisoblanadi. Bu muzeyda uzoq yillik tarixga ega eksponantlar saqlanib kelmoqda. Muzeyga qiziquvchilar uchun ajoyib bir obyekt hisoblanadi.

Qonbeshbuloq meteorit ko'li

O'lchami 800 metr keladigan ushbu kichik ko'l Surxondaryo viloyatidagi Xomkon darasida joylashgan. Olimlarning fikricha, tabiiy yo'l bilan emas, balki meteorit qulashi tufayli yuzaga kelgan. Tuproqdan esa tektitlar topilgan. Bunday ajoyib meteorit ko'lga tashrif buyurishni unutmang. Katta ehtimol bilan, Qonbeshbuloq aslida bir meteorit krateridir. Bu qiziq, chunki ba'zi olimlar uni meteorit krateri deb hisoblashadi. Bir versiyaga ko'ra, ko'l meteorit qulaganidan keyin paydo bo'lgan. Natijada, bu yerda krater paydo bo'ldi, keyinchalik u suv bilan to'ldirildi. Tuproqda va ko'lga olib boradigan daryo qumida kosmik kelib chiqadigan ko'plab parchalar va shishasimon tanalar topilgan. Qonbeshbuloq ko'li va uning atroflari hali yetarlicha o'rganilmagan va, ehtimol, hali ham ko'p sirlarni yashirmoqda. Suv ombori noma'lum va sirli narsalarni sevuvchilarni jalb qiladigan tabiiy yodgorliklardan biriga aylanishi mumkin.

Xojaikon tuz g'ori

Sherobod tumanidagi "Xojaikon" tuz g'ori Ko'hitang tog' tizmasi etaklari yonbag'rida, dengiz sathidan 1 ming 200 metr balandlikda joylashgan. Noyob g'or ichkarisiga kirsangiz san'at galereyalari tizimi ko'z oldingizda gavdalanadi. Harorati, namligi, bosimi va mikroiqlimi bir-biridan farq qiladigan keng, shinam xonalar hayratingizni oshiradi.

O'ttiz uch yildan buyon mahalliy va xorijlik tibbiyot turizmi shaydolarining dardiga malham bo'layotgan sirli go'sha devorlari 1–3 santimetrgacha tuz qatlami bilan qoplangan. Havo harorati 14 dan 25 darajagacha bo'ladigan g'orning uzunligi 200 metrni tashkil etadi. G'orning ichki uzun yo'lakchasida tuz eritmali shifobaxsh suv bor.

Omonxona sanatoriyasi

Sanatoriya balneologik va iqlimiy kurort hisoblanadi. Asosiy davolovchi xususiyat mineral buloqdir. Suvning asosiy shifobaxsh xususiyati bu jigar sirrozi va gepatit kabi kasalliklarni oldini olish va davolashdir. Sanatoriyada bemorlar uchun zamonaviy davolash va diagnostika bazasi mavjud. Sanatoriya 12 gektar maydonni egallaydi va bir vaqtning o'zida 200 kishini qabul qilishi mumkin. Sanatoriya hududida dam oluvchilarning bo'sh

vaqtini tashkil etish uchun yozgi va qishki klublar, kutubxona, tennis stoli, yopiq basseyn, fitobar mavjud.

Xulosa

O'zbekiston turistik salohiyati yuqori mamlakat hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki O'zbekiston turizimi asosan 2 ta mavsumda ya'ni kuz va bahor fasllariga mo'ljallangan. Shu sababli ham mamlakatimizda tashrif buyurish ancha qimmatga tushadi. Qish mavsumida Toshkent viloyatida joylashgan Chimyon tog' dam olish maskaniga tashrif buyurishadi bu nafaqat qishda boshqa fasllarda ham tashrif buyursa bo'ladi. Bitta bo'lgani uchun narxlari qimmat lekin bizda Boysun tog'lari ham bor biz bu tog'larning imkoniyatlaridan unumli foydalansak narxlarimiz ham arzon bo'ladi turistlarni jalb etish hamda ichki turizm ham rivojlanadi. O'zbekistonda hozir ko'proq ziyorat turizmi rivojlangan lekin biz yurtimizda turizimning ko'plab turlarini yaratish imkoniyatimiz bor. Yuqoridagi maqolada men sanatoriyalarni qadimiy diqqatni tortadigan daraxtlarni, muzeylarni ko'llarni haqida yozdim. Aslida bunday noyob yodgorliklar hamma viloyatimizda bor. Yurtimizda tabiiy holda vujudga kelgan ajoyib obyektlar juda ham ko'p. Turizm rivojlangan ko'plab mamlakatlardagi aksariyat obyektlar sun'iy ravishda bunyod etilgan ammo o'ziga ko'plab turistlarni jalb etmoqda. Lekin bizda tabiiy makonlar ko'p ularda unumli foydalansak yurtimizda turizm yanada rivojlangan. Eski qadamjolar yo'q bo'lib ketmoqda ularni asrab-avaylash va rekonstruksiya bo'yicha muammolarimiz bor. Biz bor aql kuchimizga tayanib ularni asl holatida saqlab qolishga harakat qilishimiz kerak. Mening fikrimcha, turizmni rivojlantirishimiz uchun marketing kuchaytirishimiz, viloyatlarimizdagi obyektlarni qadrini anglab ulardan to'g'ri foydalanishimiz, obyektlarga ajratilgan mablag'larga vijdonan -insof bilan yondashimiz hamda ijtimoiy qatlamni ongini o'zgartirishimiz kerak. Yuqoridagilarni inobatga olib, Vatanimiz turizimini rivojlantirish uchun xizmat qilsa jonajon O'zbekistonimiz yanada gullab yashnaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Usmonov M.R Turizm geografiyasi: o'quv qo'llanma-Samarqand "SamDU" 2019.-212, 213, 214 -b
- 2) Egamberdiyeva L.SH 2021 yil Ekoturizm
- 3) <https://kun.uz>, www.daryo.uz
- 4) "Teshiktosh g'ori" O'zME. Birinchi jild, 2000-yil